



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдулаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


1. Юлдуз Эргашева ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ II МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	5
2. Nilufar Djurayeva O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHDA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDAGI TUB ISLOHOTLARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI..	13
3. Камола Саипова НАЦИОНАЛЬНО-ГОСУДАРСТВЕННОЕ РАЗМЕЖЕВАНИЕ И ЕГО ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА УЗБЕКСКОЙ ССР.....	26
4. Отабек Алимардонов ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИНГ ТЎРТ КВАДРАНТИ (ЧОРАК) ПАРАДИГМАСИ: НАЗАРИЙ ТИПОЛОГИЯ ВА ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ.....	34
5. Zilola Abdualimova SOVET PLAKATLARI TARG‘IBOT VOSITASI SIFATIDA (MIRZACHO‘LNI O‘ZLASHTIRISH MISOLIDA).....	45
6. Шерзод Бахранов ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ПАХТАЧИЛИК ИLMИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН.....	52
7. Abduvali Berdiyev SHARQIY TURKISTON BILAN SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHIDA QO‘QON KARVON YO‘LLARINING O‘RNI VA ULARNING MINTAQAVIY IQTISODIYOTGA TA‘SIRI (18–19-ASRLAR).....	58
8. Икрамжон Исмаилов ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ВИЛОЯТЛАРИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДАГИ МУАММО ҲАМДА ЎЗГАРИШЛАР (1991-2020 йй).....	69
9. Земфира Курбанова ЦИКЛЫ ПОМИНОВЕНИЯ В СЕМЕЙНЫХ ОБРЯДАХ КАРАКАЛПАКОВ И ИХ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЕ ПАРАЛЛЕЛИ.....	80
10. Tamara Ro‘ziyeva MIRZO SIROJIDDIN HAKIMNING “TUHAFI AHLI BUXORO” ASARIDA TURKISTON JAMIYATI HAQIDA.....	87
11. Sarvinoz Toshmurodova MILLIY SPORT TIZIMI VA OLIMPIYA HARAKATI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI.....	92
12. Elyor Hojamberdiyev TURON ARXELOGIYASINI O‘RGANISHDA YONDASHUV VA TADQIQOT USULLARI (ERON OLIMLARI MISOLIDA).....	99



Abduvali Abdugʻaniyevich Berdiyev,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasida dotsenti
e-mail: abduvali4111104@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0003-6958-0605>

SHARQIY TURKISTON BILAN SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHIDA QOʻQON KARVON YOʻLLARINING OʻRNI VA ULARNING MINTAQAVIY IQTISODIYOTGA TAʼSIRI (18–19-ASRLAR)

For citation: Abduvali A. Berdiyev. THE ROLE OF KOKAND CARAVAN ROUTES IN THE DEVELOPMENT OF TRADE RELATIONS WITH EASTERN TURKESTAN AND THEIR IMPACT ON THE REGIONAL ECONOMY (18TH–19TH CENTURIES). *Look to the past*. 2025, vol. 8, issue 7, pp.58-68

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16755285>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XVIII–XIX asrlarda Qoʻqon xonligi bilan Sharqiy Turkiston va Toshkent oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning shakllanishi va rivojlanish jarayoni tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Ayniqsa, Sharqiy Turkistondan Xitoy mahsulotlarining (choy, ipak, paxta, gilam va boshqalar) Qoʻqon xonligi orqali Buxoro va Xiva xonliklariga tranzit qilinishi, bu yoʻnalishning Markaziy Osiyoda mintaqaviy savdo tarmogʻini shakllantirishdagi oʻrni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Toshkentning Qoʻqon xonligi tarkibiga kirishi natijasida, Rossiyaning iqtisodiy ekspansiyasi tezlashgan boʻlib, bu holat mintaqadagi savdo va geoiqtisodiy dinamikaga bevosita taʼsir koʻrsatgan. Shuningdek, tarixiy shaharlar (Daraut-Qoʻrgʻon, Qizil-Qoʻrgʻon, Qoshgʻar, Shayxontohur, Beshyogʻoch, Koʻkcha va boshqalar) orqali oʻtuvchi karvon yoʻllari tizimi hamda muhim savdo markazlari oʻrganilib, Yunusxoʻja, Muhammad Alixon, Chokan Valixonov va A.G. Rotchev kabi tarixiy shaxslarning faoliyati asosida savdo-siyosiy aloqalar tahlil etiladi. Mavzu mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va tarixiy tranzit yoʻllarining strategik ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit soʻzlar: Qoʻqon xonligi, Sharqiy Turkiston, Toshkent, karvon yoʻllari, Xitoy savdosi, choy, ipak, paxta, gilam, Qoshgʻar, Muhammad Alixon, Yunusxoʻja, Chokan Valixonov, A.G. Rotchev, Shayxontohur, Daraut-Qoʻrgʻon, Qizil-Qoʻrgʻon, Beshyogʻoch, Koʻkcha, Sebzor, Badaxshonlik savdogarlar, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya.

Абдували Абдуганиевич Бердиев,
Доцент кафедры истории
Шахрисабзского государственного
педагогического института
e-mail: abduvali4111104@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0003-6958-0605>

РОЛЬ КОКАНДСКИХ КАРАВАННЫХ ПУТЕЙ В РАЗВИТИИ ТОРГОВЫХ СВЯЗЕЙ С ВОСТОЧНЫМ ТУРКЕСТАНОМ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РЕГИОНАЛЬНУЮ ЭКОНОМИКУ (XVIII–XIX ВВ.)

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе исторических источников рассматривается формирование и развитие торгово-экономических связей между Кокандским ханством, Восточным Туркестаном и Ташкентом в XVIII–XIX веках. Особое внимание уделено транзиту китайских товаров (чай, шелк, хлопок, ковры и др.) через территорию Кокандского ханства в Бухарское и Хивинское ханства, что сыграло важную роль в формировании региональной торговой сети в Центральной Азии. Присоединение Ташкента к Кокандскому ханству способствовало активизации экономической экспансии России, что оказало непосредственное влияние на торговую и геоэкономическую динамику региона. Также анализируется система караванных путей, проходивших через исторические города (Дараут-Курган, Кызыл-Курган, Кашгар, Шайхантахур, Бешягач, Кукча и др.) и ключевые торговые центры. На основе деятельности таких исторических личностей, как Юнусходжа, Мухаммад Алихан, Чокан Валиханов и А.Г. Ротчев, исследуются особенности торгово-политических связей. Тематика статьи направлена на освещение значения региональной экономической интеграции и стратегической роли исторических транзитных маршрутов.

Ключевые слова: Кокандское ханство, Восточный Туркестан, Ташкент, караванные пути, китайская торговля, чай, шелк, хлопок, ковры, Кашгар, Мухаммад Алихан, Юнусходжа, Чокан Валиханов, А.Г. Ротчев, Шайхантахур, Дараут-Курган, Кызыл-Курган, Бешягач, Кукча, Себзор, бадахшанские купцы, региональная экономическая интеграция.

Abduvali A. Berdiyev,

Associate Professor of the History Department,
Shahrisabz State Pedagogical Institute,
e-mail: abduvali4111104@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0003-6958-0605>

THE ROLE OF KOKAND CARAVAN ROUTES IN THE DEVELOPMENT OF TRADE RELATIONS WITH EASTERN TURKESTAN AND THEIR IMPACT ON THE REGIONAL ECONOMY (18TH–19TH CENTURIES)

ABSTRACT

This article explores the formation and development of trade and economic relations between the Kokand Khanate, Eastern Turkestan, and Tashkent during the 18th and 19th centuries, based on historical sources. Particular attention is paid to the transit of Chinese goods (such as tea, silk, cotton, carpets, and others) from Eastern Turkestan through the Kokand Khanate to the Bukhara and Khiva Khanates, highlighting the strategic role of this route in shaping the regional trade network in Central Asia. The incorporation of Tashkent into the Kokand Khanate accelerated Russian economic expansion, which had a direct impact on the commercial and geoeconomic dynamics of the region. The article also analyzes the system of caravan routes passing through key historical settlements (Daraut-Kurgan, Kyzyl-Kurgan, Kashgar, Shaykhantahur, Beshyoghoch, Kukcha, and others) and the major trade centers along these paths. Furthermore, the trade-political relations are studied through the activities of historical figures such as Yunus Khoja, Muhammad Alikhan, Chokan Valikhanov, and A.G. Rotchev. The research emphasizes the significance of regional economic integration and the strategic importance of historical transit routes.

Index Terms: Kokand Khanate, Eastern Turkestan, Tashkent, caravan routes, Chinese trade, tea, silk, cotton, carpets, Kashgar, Muhammad Alikhan, Yunus Khoja, Chokan Valikhanov, A.G. Rotchev, Shaykhantahur, Daraut-Kurgan, Kyzyl-Kurgan, Beshyoghoch, Kukcha, Sebzor, Badakhshani merchants, regional economic integration.

Kirish

XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan savdo-sotiq tizimida karvon yo‘llari muhim geoiqtisodiy ahamiyat kasb etgan bo‘lib, bu jarayonda Qo‘qon xonligi va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi savdo yo‘llari alohida o‘rin egallagan. Ayniqsa, Qo‘qon xonligining geografik jihatdan strategik joylashuvi – ya‘ni Farg‘ona vodiysi orqali Xitoy (Sharqiy Turkiston) bilan Turkiston dashtlari, Buxoro, Xiva, hatto Eron va Hindiston yo‘nalishlarini bog‘lab turuvchi muhim tugun sifatidagi maqomi – savdo va iqtisodiy aloqalarning jadallashuviga zamin yaratgan.

Mazkur davrda Qashg‘ar, Yarkand, Khotan kabi Sharqiy Turkiston shaharlari bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasida choy, ipak, paxta, gilam, temir buyumlar, zargarlik mahsulotlari kabi turli tovarlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan. Bu yo‘nalishda faoliyat yuritgan karvonlar faqat iqtisodiy almashuv bilan cheklanmay, balki diniy, madaniy va ilmiy g‘oyalar almashuvi, turli etnoslar va savdo elitalari o‘rtasidagi muloqot va kooperatsiyani ham ta‘minlagan. Aynan mana shunday savdo yo‘llari orqali Markaziy Osiyo madaniy maydonida uyg‘unlashuv kuchaygan.

Shu bilan birga, Rossiya imperiyasining XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridan boshlab mintaqada kuchayib borayotgan ekspansiyasi Qo‘qon xonligi orqali Sharqiy Turkistonga iqtisodiy va siyosiy kirib borishga intilganini ko‘rsatadi. Xususan, Toshkentning 1809-yilda Qo‘qon xonligi tarkibiga qo‘shilishi bu yo‘nalishdagi karvon tarmoqlarining yana-da muhimlashtirgan. Bu holat A.G. Rotchev, Chokan Valixonov kabi rus va qozoq tadqiqotchilari tomonidan qayd etilgan manbalarda ham o‘z aksini topgan.

Dolzarbli: Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy integratsiyasi, geoiqtisodiy tarmoq qurilishi va tarixiy savdo yo‘llarining tiklanishi (jumladan, “Yangi Ipak yo‘li” tashabbuslari) doirasida o‘z tarixiy ildizlariga murojaat qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qo‘qon xonligi bilan Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi XVIII–XIX asrlarga oid savdo yo‘llari va ular orqali amalga oshirilgan iqtisodiy hamkorlik mintaqada o‘zaro aloqalarning shakllanishi, xalqaro tranzit tizimining rivoji hamda iqtisodiy diplomatiyaning tarixiy asoslarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Mazkur mavzuning dolzarbli shundaki, u nafaqat tarixiy savdo munosabatlarini yoritadi, balki hozirgi zamonaviy iqtisodiy aloqalarning ildizlarini, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning tarixiy modelini ilmiy asosda ochib beradi. Qo‘qon–Qashg‘ar yo‘nalishining mintaqaviy savdo zanjiridagi strategik o‘rni, diplomatik huquqiy tartiblar, karvon tarmog‘i va etnik-sotsial hamkorlik tajribalari hozirgi integratsion siyosat uchun ham muhim saboqlardir.

Metodlar: Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiy-komparativ (taqqoslama) tahlil, manbashunoslik yondashuvi, tizimli-hududiy yondashuv hamda statistik-ma‘lumotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Asosiy e‘tibor XIX asrga oid arxiv hujjatlari, diplomatik yozishmalar, Chokan Valixonov, A.G. Rotchev, V.Velyaminov-Zernov kabi zamonaviy va klassik tadqiqotchilarning ilmiy asarlari asosida savdo aloqalari, karvon yo‘llari va ularning iqtisodiy-siyosiy ahamiyatini aniqlashga qaratildi.

Tahlil davomida Qo‘qon xonligi va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi karvon yo‘llarining shakllanishi, savdo tovarlarining turlari, tranzit hajmi va ularning mintaqaviy iqtisodiyotga ta‘siri tarixiy holatlar kontekstida o‘rganildi. Maqollani yozish jarayonida tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot davomida aniqlanishicha, XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligi bilan Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi savdo yo‘llari nafaqat iqtisodiy almashinuv, balki siyosiy va diplomatik aloqalarni mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qilgan. Muhammad Alixon davrida chegara hududlarida harbiy-iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi, Qashg‘arda qo‘qonlik savdogarlar uchun yaratilgan imtiyozli shart-sharoitlar va 1831-yilgi tinchlik bitimi savdo aloqalarining institutsional tus olganligini ko‘rsatadi.

Qo‘qon savdogarlarining Qashg‘ar, Toshkent, Buxoro va Afg‘oniston yo‘nalishlarida faol ishtiroki, ularning tranzit tarmoqlaridagi vositachilik roli va savdo-siyosiy vakolatlar orqali mintaqaviy iqtisodiyotda tutgan o‘rni aniqlandi. Ayniqsa, choy, ipak, ip gazlamalar, rus tovarlari va mahalliy mahsulotlar bilan bog‘liq savdo almashinuvi, Qo‘qon xonligini mintaqaviy geoiqtisodiy kuchga aylantirgan asosiy omillardan biri bo‘lgan. Tadqiqot natijalari bu aloqalarning madaniy,

etnik va diplomatik jihatlarda ham o'zaro integratsiyani mustahkamlashga xizmat qilganini tasdiqlaydi.

Assosiy qisim

Mazkur maqola ana shu tarixiy jarayonlarni tahlil qilish, karvon yo'llarining savdo aloqalaridagi o'rni, ularning mintaqaviy iqtisodiy integratsiyadagi funksiyasi hamda madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi hissasini ilmiy manbalar asosida yoritishga qaratilgan. Bu borada Yunusxo'ja, Muhammad Alixon, shuningdek Sharqiy Turkistondagi Badaxshonlik savdogarlarning faoliyati, ijtimoiy-iqtisodiy muhitga ta'siri ham muhim tahlil obyekti sifatida o'rganiladi. Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan savdo munosabatlari jadal rivojlangan. Ular o'rtasidagi savdo Qashg'ar orqali amalga oshirilgan. Qo'qon bilan Qashg'ar o'rtasidagi savdo aloqalari Muxammad Alixon (1822-1842) davrida Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan chegarasida bir nechta qo'rg'onlar (Daraut-qo'rg'on, Qizil-qo'rg'on, Sufi-qo'rg'on) Qurilganidan so'ng juda keng rivojlangan. 1831-yili Qo'qon bilan Xitoy o'rtasida tinchlik sulhi imzolangan. Pekinning 1828-yildagi Qo'qonga qarshi iqtisodiy sanksiyasi va savdoni taqiqlash to'g'risidagi ho'jjat bekor qilinadi va 1832-yil 13-yanvardagi imperatorning maxsus farmoni bilan Qashg'ardan nafaqat choy va ravoch olib kitishga ruxsat berildi, xattoki Qashg'arda Qo'qon savdogarlariga bojsiz savdo qilishga ijozat berishgan [1:93-b]. Qashg'arning oltita shaharlari - oqsu, Qashg'ar, Uchturfan, Xutan, Yorqand va Yangi hisorda Qo'qon savdogarlaridan boj yigish uchun Qo'qon xoni maxsus oqsoqollarini tayinlagan. Shunday qilib, shu davrdan boshlab, Qo'qonliklar Qashg'ar bilan savdoda monopol mavqega ega bo'lganlar.

Keltirilgan tarixiy dalillar Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan savdo munosabatlarini nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va institutsional darajada faol boshqarganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Muhammad Alixon davrida chegara hududlarda (Daraut-qo'rg'on, Qizil-qo'rg'on, Sufi-qo'rg'on) harbiy-iqtisodiy infratuzilmaning barpo etilishi, 1831-yildagi tinchlik shartnomasi va 1832-yilgi imperator farmoni natijasida qo'qonlik savdogarlar uchun Qashg'arda bojdan ozod qilingan savdo huquqlarining joriy etilishi — bu mintaqada Qo'qon xonligining savdo monopoliyasini shakllantirgan muhim omillardandir. Shuningdek, oltita muhim shaharda Qo'qon xoni tomonidan tayinlangan boj yig'uvchilar savdo ustidan nazoratni kuchaytirgan. Bu holat Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston bozorlariga chuqur kirib borishiga, savdo tarmog'i ustidan amaliy siyosiy nazoratni o'rnatishiga zamin yaratgan va uni mintaqaviy geoiqtisodiy kuch sifatida shakllantirgan.

1838-yil ma'lumotlariga ko'ra, Buxorodan Qobulga juda ko'p tovarlar junatilgan. Ular orasida Qo'qonning kumush tangalari va kumush yombilari, xitoy shoyi rumollari va chinnisi, Qo'qon kanop losi xam bo'lgan. Buxoro Qo'qondan xom ipak va kanop losi olgan, bu tovarlar so'ng Afg'onistonga sotilgan, Qo'qon va Xo'janddan guruch ham keltirilgan. Bu ma'lumotlar birinchidan, Qo'qonning Buxoro amirligi bilan savdo munosabatlari xaqida, qolaversa Buxoro orqali xonlikning Afg'oniston bilan savdosi aloqalariga kirishganligi to'g'risida daliliy ashyolar hisoblanadi [2:426-b].

1838-yilga oid ma'lumotlar Qo'qon xonligining Buxoro amirligi orqali Afg'oniston bilan ham savdo aloqalarini yo'lga qo'yganini dalillaydi. Xususan, Qo'qonda ishlab chiqarilgan kumush tangalar, kanop losi, shoyi va boshqa mahsulotlarning Buxoro orqali Qobulga yetkazilgani Qo'qon xonligining eksport salohiyati yuqori bo'lgan iqtisodiy markazga aylanganini ko'rsatadi. Bu holat Qo'qonning Buxoro bilan savdo-siyosiy integratsiyasini chuqurlashtiribgina qolmay, Afg'oniston kabi Janubiy yo'nalishdagi savdo yo'llariga ham faol chiqish imkonini bergan. Ayniqsa, xom ipak va guruch kabi strategik mahsulotlar almashinuvi Markaziy Osiyodagi ichki bozorlar o'rtasida tovar aylanishining kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Qo'qon xonligi va Sharqiy Turqiston o'rtasidagi savdo aloqalarini o'rganishda Cho'qon Valixonov asarlari juda qo'l keladi. Ch.Valixonov XIX asr sharqshunos olimlaridan biri hisoblanadi. Uning Markaziy Osiyo tarixi, geografiyasi, iqtisodiy hayotiga oid asarlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmokda. U 1858-1859-yillarda sharqiy Turkiston ekspeditsiyasida ishtirok etib Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy tarixi, etnografiyasi, Qo'qon xonligining davlat tuzumi, sharqiy Turkiston va Qo'qon xonligi o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va

madaniy munosabatlarni o'rgandi va o'zidan juda katta ilmiy meros qoldirdi. Uning "Qashg'ar safarini tashkil qilish haqida xotiralar", "Qashg'ar kundaligi", "Olti shaharining yoki Xitoyning Nanly (kichik Buxoro) viloyatiga kiruvchi olti sharqiy shaharning umumiy ahvoli", "Qashg'arga qilingan sayoxat", "Qo'qon xonligi to'g'risida" va boshqa asarlarida Qo'qon xonligi bilan sharqiy Turkiston shaharlari o'rtasidagi iqtisodiy-savdo munosabatlariga doir ma'lumotlari e'tiborga loyiqdir.

Ch.Valixonov Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi savdo aloqalariga to'xtalar ekan, xattoki sharqiy Turkistondagi hunarmand va savdogarlarning faoliyati bilan bog'liq muhim ma'lumotlarni ham keltiradi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, umumiy soni va ahamiyati jihatidan birinchi o'rinda qo'qonliklar, keyin buxoroliklar, so'ngra badaxshonliklar, Kashmirliklar va balxliklar turgan. Badaxshonliklar, Kashmirliklar va balxliklar asosan Yorkand va Xutanda istiqomat qilgan. Bundan tashqari mazkur shaharlarda ko'plab afg'onlar, buxoro yaxudiyari, hindlar, forsalar, shirvonliklar va tatarlar istiqomat qilgan [2:46-b]

Ushbu holatda kelib chiqan holda Ch.Valixonovning ma'lumotlari Sharqiy Turkistonning XIX asrda mintaqaviy savdo va hunarmandchilik markazi sifatidagi rolini yaqqol tasdiqlaydi. Xususan, Yorkand va Xotan shaharlarining ko'p millatli aholisi va u yerdagi savdo-sotiq jarayonlarining faoliyati bu hududning transregional savdo yo'llaridagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Qo'qonliklar, buxoroliklar, badaxshonliklar, Kashmirliklar va balxliklarning bu jarayondagi ishtiroki Sharqiy Turkiston bilan Markaziy Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning keng ko'lamliligi va chuqur ildizlarga ega bo'lganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, mazkur etnik va savdo guruhlarining hududiy joylashuvi, ularning iqtisodiy integratsiyasi darajasini anglash imkonini beradi. Valixonovning kuzatuvlari asosida, Sharqiy Turkiston savdo tarmog'i ichki va tashqi bozorlarga ochiq bo'lgan ko'p millatli va ko'p madaniyatli iqtisodiy makon sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa xonliklararo savdo aloqalarini nafaqat iqtisodiy, balki madaniy aloqalar kontekstida ham tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Sharqiy Turkistonda o'rta osiyolik savdogarlarni «andijonliklar» deb atashgan [2:53-b]. Qashg'arda maxsus «Andijon-ko'cha» degan ko'cha bo'lib, unda chetdan kelgan savdogarlar yashashgan. Sharqiy Turkistonga Qo'qon, Samarqand, Buxoro savdogarlari qatorida toshkentlik savdogarlar ham borib savdo qilishgan. Qashg'ar tovarlari toshkentlik savdogarlar orqali Sibirga va Irbit yarmarkasiga olib borilgan. Ularning xammalari Qo'qon xonligi va Xitoy o'rtasidagi 1831-yili tuzilgan shartnomaga asosan Qashg'arda istiqomat qiluvchi, rezident va konsul huquqiga ega bo'lgan qo'qonlik oqsoqolga buysunganlar [2-54-b].

Keltirilgan ma'lumotlar Sharqiy Turkiston hududida o'rta osiyolik savdogarlar, ayniqsa qo'qonliklar va toshkentliklar faol ishtirok etgan murakkab savdo tizimining mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. "Andijonliklar" nomi bilan umumlashtirilgan ushbu savdogarlar guruhining Qashg'arda alohida "Andijon-ko'cha"da yashagani ularning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va savdo faoliyatining muntazamligidan dalolat beradi. Ayniqsa, toshkentlik savdogarlarning Qashg'ar mahsulotlarini Rossiyaning Sibir hududlariga, xususan Irbit yarmarkasiga yetkazgani, Sharqiy Turkiston bilan Rossiya o'rtasida shakllangan transregional savdo zanjirining mavjudligini tasdiqlaydi.

Qo'qonlik oqsoqolning Qashg'ardagi rasmiy vakolatga ega bo'lgan rezident sifatida faoliyat yuritgani esa Qo'qon xonligining tashqi savdoni institutsional jihatdan nazorat qilishga intilganini va savdo aloqalarini diplomatik yo'sinda mustahkamlashga uringanini ko'rsatadi. Bu holat mintaqaviy savdoning nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va huquqiy asoslarda boshqarilganini anglatadi.

Xususan Qashg'ar shahri, XIX asrda mintaqaviy va transkontinental savdo tizimining muhim tugun nuqtasiga aylangan. Qashg'arda mavjud bo'lgan maxsus «Andijon-ko'cha» — chet ellik, xususan Markaziy Osiyodan kelgan savdogarlarning yashash va faoliyat yuritish joyi sifatida — bu hududda xorijiy savdogarlarga nisbatan ma'lum ijtimoiy va iqtisodiy muhit yaratilganini ko'rsatadi. Qo'qon, Buxoro, Samarqand va Toshkent savdogarlarining Qashg'arda faol savdo yuritganliklari, ayniqsa, toshkentliklarning Qashg'ar tovarlarini Sibir va Irbit yarmarkalariga yetkazishda vositachi rol o'ynagani, Sharqiy Turkistonning Rossiya bozorlariga integratsiyalashuvini ta'minlagan muhim amaliyotni namoyon eta olganligini aytib o'tishimiz

mumkin. 1831-yilda Qo‘qon xonligi va Xitoy o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, Qashg‘arda yashovchi qo‘qonlik savdogarlarning huquqiy maqomi aniq belgilangan bo‘lib, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakil — konsul huquqiga ega bo‘lgan oqsoqol mavjud bo‘lgan. Bu holat savdo aloqalarining nafaqat iqtisodiy, balki diplomatik asoslarda ham rivojlanganini ko‘rsatadi. Savdogarlarning bunday huquqiy himoyaga ega bo‘lishi, ularning iqtisodiy faoliyatining barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilgan va xalqaro savdoda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirgan. Sharqiy Turqistonda turuvchi chet elliklar soni to‘g‘risida Ch.Valixonov keltirgan ma‘lumotlar ham diqqatga sazavordir. Uning ma‘lumotlariga ko‘ra muhojirlarning aksariyati Qashg‘arda istiqomat qiladilar, u yerdagi andijonliklarning o‘zi taxminan olti mingga borardi. Chet elliklar ko‘p istiqomat qilib turgan shahar - bu Qashg‘ardan keyin Xutan, so‘ngra Yorqand hisoblanadi. Oqsu va Uchturfonda esa chet elliklar ancha kam. Qashg‘ardagi chet elliklar maxalliy xalqning turtdan bir qismini tashkil etib, 145 ming kishi yitgan edi. Ch.Valixonovning O‘rta Osiyo va Qashg‘ar o‘rtasidagi savdo munosabatlarida savdoga qo‘yilgan asosiy tovarlar haqidagi ma‘lumotlari ham ahamiyatga ega. Bu ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘rta Osiyodan Sharqiy Turkistonga olib borib sotiladigan tovarlarning asosiy qismini doroyi, parcha, indigo, ipak gazlamalar, mayda yul-yul yoki guldor shoyi, gulbara deb ataluvchi yupqa gazlama, podshoi va beqasam, tiniq rangli yarim ipak va ip gazlamalar, hamda alacha deb ataluvchi ip matolar, teri, qo‘y va qoramol, afyun, tamaki va O‘rta Osiyoda ishlangan boshqa xunarmandchilik buyumlari tashkil etgan. Sharqiy Turkistondan O‘rta Osiyoga esa choy, paxta, ipak, buz, gilam, billur idishlar va kumush keltirib sotilgan. O‘rta osiyolik savdogarlar sharqiy Turkiston bozorlarida G‘arbiy Ovropondan kelgan tovarlar bilan ham savdo qilganlar. Shveysariyada, Fransiyada va Angliyada ishlab chiqarilgan yorqin qizil rangdagi chitlar, ingliz amerika karton qog‘ozlari, qizil tusdagi ingliz Kashmir, oq muslin (xarir va yupqa gazlama) va boshqalar shular jumlasidandir [2:197-216-b].

O‘rta Osiyolik, ayniqsa, qo‘qonlik va toshkentlik savdogarlar Rossiyadan Sharqiy Turkistonga rus tovarlarini keltirib sotishda vositachilik ham qilgan. Ch.Valixonov “rus tovarlarining Qashg‘arga Qo‘qon va Fulja orqali keltirilib sotilishi haqida ham xabar beradi. Qashg‘arga qo‘yidagi rus tovarlari: movut, turli-tuman matolar, salla uchun ishlatiladigan xarir mato, ipak gazlamalar, parchalar; Rigada ishlangan duxobalar; oynalar, qalampirmunchoq, novshadil, simob, qizil tusdagi buyoq, turli-tuman metallar (temir, miss, qalayi) va metall buyumlar (samovar, choynak, likobcha, togoralar, qozonlar, patnislar, shamdonlar, tugmalar, kuzoynaklar, chumichlar, qulf-kalitlar, qalamtaroshlar) va boshqalar olib borilgan [2:197-216-b]. Darhaqiqat, sharqiy Turkiston savdosi Qo‘qonlik va buxorolik savdogarlar qo‘lida tuplangan.

Ch.Valixanovning O‘rta Osiyodan Qashg‘arga olib kelib sotilgan tovarlarning narx- navolari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar diqqatga sazovordir. Masalan: 20 tup shoyi (1-nav) 24 zolotix [3:205-206-b], 40 tup podshoyi 11 zolotix, 40 tup beqasam 8-8.5 zolotix, 20 tup gulbara 12-13 zolotix, 40 tup parcha 16 zolotix, Xuton shoyisining bir pudi Qo‘qonda 12-14 zolotix turgan [4]. P.I.Nebolsin XIX asr o‘rtalarida Xivaga Qo‘qondan Qashg‘ar choylari keltirilganligini ma‘lum qiladi. P.Nebolsinining ma‘lumotlari avvalo, Qo‘qon bilan Qashg‘ar o‘rtasidagi savdo munosabatlari juda tez rivojlangan, ikkinchidan, Qo‘qon Qashg‘arning Buxoro, Eron, Hindiston va Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachilik rolini bajargan, uchinchidan Qo‘qon-Qashg‘ar yo‘li Buxoro-Eron yoki, Xiva-Eron yo‘llariga nisbatan anchagina mashaqqatli va shu bilan birga bexavotir bo‘lgan, deyishga asos bo‘ladi.

Qo‘qon va Qashg‘ar oraligidagi savdo yo‘llari noqulay tog‘ yo‘llari orqali o‘tilganligini V.Velyaminov-Zernov ham ta‘kidlaydi. Uning ma‘lumotlariga ko‘ra, XIX asrning birinchi yarmida Qashg‘ardan Qo‘qonga 300 otda ko‘k va qora choy, 200 otda oq; kiygiz, otda xitoy idishlari va 50 otda baqqollik buyumlari keltirilgan [5:128-b].

V.Velyaminov-Zernovning XIX asrning birinchi yarmidagi karvon savdosi haqidagi kuzatuvlari Qo‘qon xonligi bilan Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning ko‘lami va murakkabligini ko‘rsatadi. Uning yozishicha, Qashg‘ardan Qo‘qonga yuzlab otlarda ko‘k va qora choy, oq kiyiz, xitoy idishlari hamda baqqollik mahsulotlari keltirilgan. Bu faktlar, bir tomondan, Sharqiy Turkiston bilan savdo aloqalarining muntazam va ko‘p tarmoqli bo‘lganini tasdiqlasa,

ikkinchi tomondan, ushbu savdo yo'llarining murakkab relief – ayniqsa tog'li hududlar orqali o'tganini, shunga qaramay faol foydalanilganini ko'rsatadi.

Mazkur ma'lumotlar shuni anglatadiki, karvon yo'llari nafaqat iqtisodiy jihatdan foydali, balki logistik va geosiyosiy ahamiyatga ham ega bo'lgan. Ayniqsa, minglab otlarda mahsulot tashilganini hisobga olsak, bu yo'nalishdagi savdo jarayonlari yaxshi tashkillashtirilganini va karvon tarmoqlarining yuqori darajadagi uyushqoqlik bilan boshqarilganini ko'rish mumkin. Aynan tog'li va noqulay yo'llar orqali bu hajmdagi tovarlarni yetkazib berish, karvon boshliqlari, yo'lbozlar va savdogarlar o'rtasidagi tajriba va o'zaro hamkorlikning yuqoriligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, bu holat Qo'qon xonligi iqtisodiyotining Sharqiy Turkiston mahsulotlariga, ayniqsa Xitoy choyi va boshqa iste'mol tovarlariga qanchalik bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Bunday miqyosdagi savdo aloqalari mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning amaliy ifodasi bo'lib, bu jarayonlar o'z navbatida Markaziy Osiyoning ichki bozorlari o'rtasida narxlar, talab va ta'minotning muvozanatiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Qo'qon Qashg'ar bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo qilibgina qolmasdan, Qashg'arning Rossiya bilan Xitoy o'rtasidagi savdosi munosabatlarida Qo'qon vositachi vazifasini ham o'tagan. Qashg'ar Qo'qon xonligi chegaralari orqali tranzit yuli bilan Xitoy va Rossiyaga choy, chinni, chorva va chorvachilik mahsulotlari, ipak matolar va boshqa tovarlar junatgan. Bu tovarlar evaziga Qo'qondan matolar, teri, ipak, qo'zi terisi, muyna, qimmatbaho toshlar, bezak buyumlari va ko'plab rus tovarlari olib borilgan.

XIX asr o'rtalarida Qo'qon bilan Qashg'ar o'rtasidagi savdoda mol ayirboshlash har yiliga 5 mln rub.gacha yetgan. Qashg'ardan Qo'qonga faqat choyning o'zi har yili 30 ming pud keltiriladigan bo'lgan [6:147-b].

1862-yilda "Russkiy Vestnik" jurnalida e'lon qilingan maqola ma'lumotlariga ko'ra, O'rta Osiyo xonliqlariga Xitoy ulkasidan Fulja, Chuguchak va Qashg'ar orqali ko'proq choy, xitoy chinni idishlari keltirilgan. Hindistondan qand, indigo, ip gazlama, Kashmir sholi, Erondan yevropa tovarlari olib kelingan [7:707-708-b].

Qo'qonning Qashg'ar, Buxoro va Toshkent bilan savdo aloqalari XIX asrning 70-yillarida ham davom etgan bulib, bu haqidagi ma'lumotlarni A.P.Xoroshxinning asarida ham uchratish mumkin. Unda yozilishicha, Qo'qondan Toshkentga paxta, mevalar, jun, teri, ipak, opium, Qo'qon va Marg'ilon fabrikalarining ipak matolari, Qo'qonga Avliyo ota orqali qirgiz dashtlaridan un minglab qo'y, Toshkentdan rus manufaktura buyumlari, qand, temir va boshqalar, Buxorodan hind choylari, indigo, mal-mal, opium, buxoro ipak matolari Qashgardan opium, chinni idishlar, kumush yombi holida, kimxan deb ataluvchi xitoy ipak matosi, har xil kiygiz va gilamlar keltirilgan [8:43-b].

1862 yilda G'arbiy Xitoyda dunganlar qo'zg'oloni sodir bo'lgan. Dunganlar qo'zg'oloni Markaziy Osiyo davlatlari hayotida faqat siyosiy jarayon bo'lib qolmay, balki iqtisodiy hayotga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. A.G.Rotchev qalamiga mansub asarda dungan qo'zg'oloniga qadar Xitoy Qo'qon, Buxoro, Xiva va boshqa davlatlar bilan qizg'in savdo aloqalarida bo'lganligini, lekin bu qo'zg'olon mazkur davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalari rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi e'tirof qilingan. Ayniqsa, bu holat choy savdosida aniq namayon bo'lgan.

O'rta Osiyoga muljallangan choy karvonlari avval Urumchida yig'ilib, so'ng u yerdan yo'l ikkiga bo'lingan. Birinchi yul, Urumchidan Fulja orqali Verniy, Avliyoota va Chimkentga, ikkinchi yo'l, Urumchidan Qashg'ar orqali Qashg'ar-Dovon yo'lidan O'shga kelgan. Ushdan karvon yuli ikkiga bo'linadi, biri Ush Xo'jand- Samarqand- Buxoro, ikkinchisi esa, O'sh- Qo'qon- Namangandan Toshkentga borgan.

Muallif Fuljadan keltirilgan choyning miqdori va narxlari haqida ham ma'lumot bergan. Bundan tashqari, 1868-1869-yil ma'lumotlarida, inglizlar tomonidan Hindistondan O'rta Osiyoga keltiriladigan choyning aksariyati ko'k choy ekanligi ham eslatiladi [9:20-b]. Toshkent Qo'qon xonligi tarkibida bo'lgan. XVIII asrning uchinchi choragida Toshkentda mustaqil davlat yuzaga kelib, u bilan Qo'qon o'rtasida to'qnashuvlar ro'y beradi. Qo'qon xonligi haqida ma'lumotlar berar ekanmiz.

Qo'qonning asosiy savdo sheriklaridan biri Toshkent hisoblangan. O'rta Osiyoning sharq

davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarida Toshkent shahri azaldan alohida mavqiga ega bo'lgan. Tashkent shahri XVI asrda Rossiyada ham ma'lum bo'lib, Tashkura nomi bilan "Kniga Bolshogo Cherteja"ga ham kiritilgan. XVI asrning ikkinchi yarmida Tashkent Buxoro xonligiga qo'shib olingan.

O'rta asrlarda Toshkent o'z tovarlari bilan mashhur bo'lgan. Mahmud ibn Vali Toshkentdan olib ketiladigan tovarlar haqida yozib, dorivor o'simliklar, [10:57-b] jumladan, qon ketishini tuxtatishda qo'llaniladigan o'simliklar haqida, eslatadi. Bu dori Xitoyga ham eksport qilingan. Mahmud ibn Vali uz asarida darmana deb ataluvchi ko'p yillik yarim buta haqida ma'lumot berib, uning barglarida va gul tudasida terpenoid santonin bo'lib, uning gijjani yo'qotadigan xususiyatga ega ekanligini bayon qilgan. Darmana Toshkentdan ko'plab Yevropa mamlakatlariga olib borilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, asrning 30-yillarida savdogarlar Toshkentda o'sadigan darmana urug'ini Eron va Turkiyaga, Turkiyadan esa nemis davlatlariga olib borishgan [11:96-97-b].

Tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyodagi shaharlar kabi Toshkent ham Sharq; bilan Farbni bir-biriga bog'lab turuvchi Buyuk ipak yuli ustida joylashgan. Karvon yuli Qashg'ardan O'sh orqali Toshkentga kelgan. Toshkent O'rta Osiyoning muhim shaharlaridan biri hisoblanib, Qo'qonning Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachilik rolini ham o'tagan. Shu bilan birga rus hukumati Toshkent orqali O'rta Osiyo xonliklari bilan va hattoki u orqali Xitoy bilan savdo qilishga harakat qilishgan.

1852-yil fevral-may oylarida Rostovlik savdogar S.Y.Klyucharev Toshkentda bo'lib, o'zi shohid bo'lgan voqealarni kundaligiga yozib borgan. V.V.Velyaminov-Zernov kundalikdan foydalanib, uni izohlar va qo'shimchalar bilan boyitib "Istoricheskiya izvestiya o Kokandskom xanstve, ot Muxdmmeda-Ali do Xudayar-Xana" asarini yozgan [12:364-b]. Kundalikda keltirilgan dalillar ko'proq xonliklar o'rtasidagi siyosiy aloqalar va savdo munosabatlarini yoritishga yordam beradi. Jumladan: 3 va 29 aprelda Buxorodan Toshkentga savdo karvonlari kelgan. 3 aprelda kelgan karvondagi tovarlarning aksariyati opium bo'lgan. Kundalikda «savdogarlar, Fulja, Chuguchak, Qashg'ar va Xitoyning barcha chegara shaharlarida bu tovardan foyda ko'pligini bilganliklari uchun hamma opiumni o'sha zahotiyok naqd pulga sotib olishdi",- deb yozilgan edi [12:364-b].

Usha kezlarda Toshkentda qo'qonlik savdogarlar ham bo'lishgan. Toshkentga qozoqlar chuldan chorva mollari haydab kela boshlashgan va bir kunda 20.000 qo'y sotilgan. 8 aprelda Toshkentdan Troitsk va Fuljaga karvon jo'nagan. Fuljaga ketgan karvonda oltin (qo'yima va pul holidi) va opiumdan boshqa tovar bo'lmagan ekan. 13-aprelda Toshkentdan Troitsk, Petropavlovsk, Buxoroga, 15-aprelda esa Petropavlovsk va Semipalatinskga karvon jo'nagan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkent to'rt dahaga: Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzorga bo'lingan, har bir daha o'zicha mustaqil davlat edi. 1784-yilda shahar aholisining yordamiga tayanib Yunusxo'ja hokimiyatni qo'lga oladi va Toshkentni mustaqil davla deb e'lon qiladi. Uning davrida shahar mustahkam mudofa devorlari bilan o'rab chiqiladi. 1800-yilgi ma'lumotlarga qaraganda Toshkent yirik shahar bo'lgan, devor quyi qismining qalinligi 1,8 metr, ustki qismi 0,9 metr atrofida bo'lib, aylanma uzunligi 18 chaqirimdan ortiq, shahar devorining balandligi esa 7,9 m ga teng bo'lgan [13:110-b].

R.Ramsuddinov, Sh. Karimov, O'Ubaydullayev ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha fikr yuritishimiz mumkin, XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkentda mavjud bo'lgan to'rt daha – Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzor – shahar ichida siyosiy va ma'muriy bo'linmalar sifatida faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning har biri deyarli mustaqil ravishda boshqarilgan. Bu holat o'z navbatida shaharning markazlashmagan siyosiy tizimga ega bo'lganidan dalolat beradi. Biroq 1784-yilda Yunusxo'janing hokimiyatni qo'lga olishi va Toshkentni yagona siyosiy markaz sifatida birlashtirishi, shahar tarixida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Bu voqea Toshkentda markazlashgan boshqaruv shakli shakllanishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, uning tashabbusi bilan barpo etilgan mudofaa devorlari shaharni tashqi tahdidlardan himoya qilish bilan birga, uning iqtisodiy va harbiy-siyosiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan. 1800-yildagi arxitektura ma'lumotlariga ko'ra, Toshkentning harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Devorlarning qalinligi va balandligi, shuningdek, ularning umumiy uzunligi shaharning yirikligi va muhimligini tasdiqlaydi. Bu kabi mustahkam himoya inshootlari, bir

tomondan, shahar xavfsizligini ta'minlasi, ikkinchi tomondan, uning savdo yo'llaridagi ahamiyatini oshirgan.

Shaharning 12 ta oltin kaliti bo'lib hozir milliy bankda saqlanmoqda. Shaharda o'sha paytda 10 mingta xonadon 80 ming aholi yashagan. Yunusxo'ja tarixiy yozma manbalarga qaraganda olti ming kishilik qo'shin turgan. Uning askarlari asosan pilta miltiq, qilich nayza, qalqon va to'plar bilan qurollangan edilar. Qo'shin tarkibi asosan turli shahrlardan kelgan musofirlar va askarlardan iborat bo'lib,—”qoraqozon” deb atalgan. Rus tog' muhandislari (aslida Rossiyaning O'rta Osiyodagi ayg'oqchilari) A.S.Beznosikov va T.S Burnashevlarning qaydnomalarida quyidagilarni o'qiydiz.—”Toshkent hukmdori (Yunusxo'ja) o'z fuqarolari ustidan cheksiz hokimiyatga ega. Ammo u o'z atrofidagi eng yaxshi amaldorlar bilan maslahatlashgan holda hokimiyatni boshqaradi. Bu kengashda Yunusxo'ja eng sodiq va ishonchli xo'jalar qatnashadi”.

Hukumat amaldorlariga maosh berilmagan. Bosh xo'ja Yunusxo'jadan keyingi ikkinchi shaxs hisoblangan. Ular faoliyati Yunusxo'ja nazorati ostida bo'lgan. Toshkent hokimligining tartibiga ko'ra har bir jondan bir oyda daromadiga qarab 5 tangadan 10 tangagacha yerdan olinadigan hosilning 40 dan bir qismi undirib olingan. Qoraxonlar har qanday soliqlardan ozod qilinganlar. Yunusxo'ja davrida Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Xo'jand, Chimkent, Turkiston, Samarqand, Andijon, va boshqa Turonzamin shaharlari Hindiston, Xitoy, Qashg'ar, Tibet, Rossiya va boshqa bir qator xorijiy mamlakatlar bilan tijorat-savdo aloqalari o'rnatilgan.

V.V.Velyaminov-Zernov asaridan shu narsa aniqlandiki, Toshkent O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi, qolaversa, Rossiya bilan Qo'qon o'rtasidagi, Qo'qon xonligining Xitoy bilan savdo aloqalaridagi markaziy vositachi shahar hisoblangan. Ammo Toshkentdagi notinchlik oqibatida Toshkentga kelayotgan karvonlar kam tovar keltirib, va aksincha ko'prok tovarlar olib ketishgan.

A.P.Teterevnikovning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning 60-yillarida savdogarlar Toshkentdagi umumiy savdo mablag'ini 10.000.000 rub. bo'lishi mumkin deb taxmin qilganligini xabar bergan [14:56-b]. Bu esa yuqorida eslatilgan keltiriladigan va olib ketiladigan tovarlar haqidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi dalil hisoblanadi.

XIX asr o'rtalariga talluqli ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qondan va xonlikning boshqa shaharlaridan har yili Toshkentga 16 ming tuya mol kelgan. Shundan 4 ming tuya paxta, 200 tuya yigirilgan ip, 10 ming tuya ip gazlama, yarim ipak va ipak matolar, chapon, ko'rpa, chalvor (teridan tiqilgan) va boshqalar, qolgan 2 ming tuyada ho'l mevalar keltirilgan. Har yili chetdan mol kiritish 4580 ming rub.gacha etgan.[15-313-b].

Qo'qonga va xonlikning boshqa shaharlariga Toshkentdan ko'proq rus tovarlari keltirilgan. Chunki Rossiya bilan savdo Toshkent orqali amalga oshirilgan. Qo'qon bilan Toshkent o'rtasidagi savdo aylanishi bir yilda taxminan 7 mln. rub.ni tashkil qilgan. Toshkent bilan Qo'qon oralig'idagi masofaning yaqinligi Toshkent savdogarlariga jo'shqin savdo qilishlariga katta imkoniyat bergan. Yillik tovar aylanishi hisobga olinsa, Toshkent savdogarlarining Qo'qon bilan aloqalari muhimroq bo'lgan.

XVI–XIX asrlarda O'rta Osiyo xalqlari Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eron va Rossiya kabi mamlakatlar bilan uzviy iqtisodiy va savdo aloqalarini yo'lga qo'ygan. Toshkent, Buxoro va Xiva shaharlari geografik joylashuvi va karvon yo'llarining qulayligi sababli Rossiyani Sharq mamlakatlari bilan bog'lovchi asosiy tranzit nuqtalarga aylangan. Ayniqsa, rus hukumati Hindistonga chiqadigan savdo yo'llarini aniqlash va ularni o'rganish maqsadida Xiva va Buxoroga qator ekspeditsiyalar yuborgan. Bu ekspeditsiyalar davomida rus sanoatchilari va savdogarlari muhim iqtisodiy va geosiyosiy ma'lumotlarni qo'lga kiritgan.

XVIII asrdan boshlab tashkil topgan Qo'qon xonligi esa O'rta Osiyo bilan Sharqiy Turkiston, xususan Xitoy o'rtasidagi savdo aloqalarida vositachi davlat sifatida muhim mavqega ega bo'lgan. Qo'qon xonligi nafaqat Xitoy bilan bevosita savdo qilgan, balki O'rta Osiyo xonliklarini Xitoy tovarlari bilan ta'minlovchi asosiy markazga aylangan. Shu bilan birga, xivalik, buxorolik va qo'qonlik savdogarlar O'rta Osiyo va Sharq o'rtasidagi savdo aloqalarini rivojlantirishda faol ishtirok etganlar.

Rus tovarlarining Sharq davlatlariga kirib borishida O'rta Osiyo hududidagi savdogarlarning vositachiligi muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, Buxoro bilan Hindiston o'rtasidagi savdo

munosabatlarida afgʻon qabilalari, ayniqsa, chegara hududlarida yashovchi etnik guruhlarining oʻrni alohida ahamiyat kasb etgan.

Shunday qilib, Oʻrta Osiyo xonliklari — xususan, Qoʻqon, Buxoro va Xiva — faqat mintaqaviy savdo markazlari boʻlibgina qolmay, balki xalqaro savdo tizimining muhim boʻgʻinlariga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, XVIII–XIX asrlarda Qoʻqon xonligi Sharqiy Turkiston bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqalarni shakllantirishda muhim vositachi davlat sifatida maydonga chiqqan. Qoʻqon va Qashgʻar oʻrtasidagi karvon yoʻllari orqali amalga oshirilgan tovar ayirboshlari, ayniqsa choy, ipak, paxta, kumush va rus sanoat mahsulotlari, nafaqat iqtisodiy barqarorlikni taʼminlagan, balki madaniy va siyosiy integratsiyaga ham zamin yaratgan. Muhammad Alixon davrida savdo infratuzilmasining rivoji, Pekin bilan erishilgan kelishuvlar, Qashgʻardagi konsullik va oqsoqollar instituti orqali Qoʻqon xonligi mintaqaviy savdoda monopol mavqega ega boʻlgan.

Shuningdek, Toshkentning bu jarayondagi roli alohida eʼtiborga loyiq boʻlib, u Rossiya bilan Sharq oʻrtasidagi savdoda tranzit tugun sifatida faoliyat yuritgan. Chokan Valixonov, A.G. Rotchev, V.Velyaminov-Zernov kabi muhim manbalarga tayangan holda aytish mumkinki, Qoʻqon xonligi tomonidan tashkil etilgan karvon tarmoqlari faqat iqtisodiy emas, balki geoiqtisodiy va madaniy jihatdan ham strategik ahamiyat kasb etgan. Sharqiy Turkistonning koʻp millatli va faol bozor makoni sifatidagi roli, Qoʻqon, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlardan kelgan savdogarlarning faol ishtiroki orqali yanada mustahkamlangan.

Demak, mazkur davrda Qoʻqon xonligi va Sharqiy Turkiston oʻrtasidagi savdo aloqalari Markaziy Osiyoda transregional integratsiya, xalqaro savdo tarmoqlari va diplomatik aloqalarning shakllanishida markaziy oʻrin tutgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Кузнецов В.С. Экономическая политика цинского правительства в Синьцзяне. М. 1973. С.93.
2. Сведения о произведениях и торговли Бухарин. Выр. из журн. “Мануфактура и торговли”. 1840. Хмыр. кол. Средняя Азия. Т.1. С.42 -53-54-197-216 б.
3. Ч.Ч.Валиханов. Собрание сочинений. Т. 3. Алма-Ата. 1984. С. 205-206.
4. Золотник - рус улчов бирлиги, мискол (4,25 граммга тенг тилло улчов бирлиги).
5. Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве //Вестник ИРГО. Ч. ХУШ. СПб., 1856. С. 128.
6. Махкамов А. А. Торговля Коканда со среднеазиатскими владениями и сопредельными странами в первой половине XIX в. Позднефеодальный город Средней Азии. Т.: «Фан». 1990. С. 147.
7. Г(агамейстер Ю.А.). О торговом значении Средней Азии в отношении К России. «Русский Вестник».Т. 41. Кн. 10. М., 1862. с. 707-708.
8. Хорошхин А.П. Очерки Кокана ./Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СПбД876. С.43
9. Ротчев А.Г. Очерки торговли Семиреченской области (1868-1869). “Русский Вестник”. 1870. № 5. Туркестанский сборник. Т. 33. . 20-22.
10. Махмуд ибн Вали.Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова.Т, 1977. С.57
11. История Узбекистана в источниках. Т. 1988. с.96-97.
- 12.Вельяминов-Зернов В.В. Историческая известия о Кокандском ханстве, от Мухаммеда-Али до Худаяр- Хана”. СПб., 1856. 364.
13. R. Ramsuddinov, Sh. Karimov, Oʻ. Ubaydullayev. Vatan tarixi. Т.—Sharq, 2010, 101-bet.
14. Тетеревников А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. СПб., 1867. с.56.
15. Туркестанский сборник Т. 5 с. 313.

14. Abduganievich, A. B. (2022). REVIEW OF KHIVA KHANATE'S FOREIGN DIPLOMATIC RELATIONS WITH NEIGHBORING STATES IN ABULGAZI'S WORKS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(7), 83-86.

15. Abduganievich, B. A., & Dilshod, M. (2020). SPECIAL INFORMATION ABOUT FOREIGN TRADE AND DIPLOMATIC RELATIONS IN THE 18TH CENTURY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(1).

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 7

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000